


Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo`mitasi tomonidan 2018 yilning yanvar – sentyabri uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo`yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o`rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko`rsatkichi bo`lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha yalpi qo`shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig`indisi orqali hisoblanadi.

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2018 yilning yanvar – sentyabrida **Qoraqalpog`iston Respublikasi** YaHM hajmi joriy narxlarda 8 193,9 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 4,8 % ga o`sdi. YaHM ning o`shishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 100,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 16,3 %), sanoat – 103,5 % (33,2 %), qurilish – 104,4 % (8,1 %), xizmatlar sohasi – 106,7 % (42,4 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 425,1 ming so`mni tashkil etdi va 3,3 % ga o`sdi.


### Qoraqalpog`iston Respublikasi YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Andijon viloyati** bo`yicha YaHM joriy narhlarda 13 177,9 mlrd.so`mni tashkil etdi va 8,3 % ga o`sdi. Iqtisodiy o`shish qishloq, o`rmon va baliq


xo`jaligida – 100,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 27,9 %), sanoatda - 128,1 % (27,7 %), qurilishda – 105,8 % (6,4 %), xizmatlar sohasida – 104,1 % (38,0 %) kuzatilgan ijobiy o`shish sur`atlari natijasida ta`minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 347,6 ming so`mni tashkil etdi va 6,5 % ga o`sdi.

### Andijon viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi




**Buxoro viloyatida** YaHM hajmi 3,8 % ga o`sdi va 10 440,0 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning tarmoq tarkibida o`shish sur`atlari: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 104,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 28,3 %), qurilishda – 103,9 % (11,4 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % (40,0 %) ni tashkil etdi. Shuningdek, 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda sanoat tarmog`ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 99,3 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 20,3 %). Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,3 % ga o`sdi va 5 551,4 ming so`mni tashkil etdi.

### Buxoro viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi




**Jizzax viloyatida** YaHM 4,1 % ga o`sdi va 5 356,7 mlrd.so`mni tashkil etdi. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 37,0 %), qurilishda – 107,3 % (9,0 %), xizmatlar sohasida –

107,3 % (39,7 %) ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 14,3 %). Aholi jon boshiga YaHM hajmi 4 012,8 ming so`mni tashkil etdi va 2,1 foizga o`sdi.




**Qashqadaryo viloyati** yalpi hududiy mahsuloti 3,0 % ga o`sdi va 15 341,4 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Jumladan: sanoatda – 104,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi 35,9 %), qurilishda – 102,3 % (7,5 %), xizmatlar sohasida – 104,4 % ni (33,5 %) tashkil qildi. Shuningdek, 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 97,9 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 23,1 %). Aholi jon boshiga YaHM 1,0 % ga o`sdi va 4 836,8 ming so`mni tashkil etdi.



**Navoiy viloyatida** YaHM o`shishi 4,0 % ni tashkil etdi va 13 270,8 mlrd.so`mga yetdi. YaHM tarmoq tarkibida o`shish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 13,4 %), sanoatda –


101,2 % (62,4 %), qurilishda – 123,1 % (4,9 %), xizmatlar sohasida – 107,6 % ni (19,3 %) tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,4 % ga o`tdi va 13 767,8 ming so`mni tashkil etdi.

### Navoiy viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Namangan viloyatida** YaHM 8 759,5 mlrd. so`mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning mos davri ma`lumotlariga nisbatan 5,0 % ga ko`pdir. YaHM ning o`shish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 105,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 26,4 %), sanoatda – 107,4 % (17,2 %), qurilishda – 103,6 % (7,0 %) va xizmatlar sohasida – 103,9 % (49,4 %) kuzatilgan ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Aholi jon boshiga YaHM 3,1 % ga o`tdi va 3 222,0 ming so`mni tashkil etdi.


### Namangan viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Samarqand viloyatida** YaHM hajmi 15 623,0 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2,9 % ga o`tdi. Ushbu hududda sanoat tarmog`ida – 105,3% (YaHM tarkibidagi ulushi – 19,2 %), qurilishda – 109,6 % (6,3 %), xizmatlar sohasida –


104,9 % (42,3 %) ijobiy o`shish sur`atlari qayd etildi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 97,5 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 32,2 %). Aholi jon boshiga YaHM 0,9 % ga o`tdi va 4 167,3 ming so`mni tashkil etdi.

### Samarqand viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Surxondaryo viloyatida** YaHM 4,2 % ga o`tdi va 9 643,6 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishiga ta`sir qiluvchi omillar bo`lib, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 41,7 %), sanoatda – 115,4 % (8,3 %), qurilishda – 105,8 % (8,5 %), xizmatlar sohasidagi – 103,9 % (41,5 %) ijobiy o`shish sur`atlari xizmat qildi. Aholi jon boshiga YaHM 3 805,2 ming so`mni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning mos davri ma`lumotlariga nisbatan 2,0 % ga ko`pdir.


### Surxondaryo viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Sirdaryo viloyatida** YaHM 4,6 % ga o`tdi va 4 349,9 mlrd.so`mni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o`shish sur`atlari qayd etildi. Xususan, o`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida


103,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 35,4 %), sanoatda 105,1 % (26,6 %), qurilishda 107,6 % (5,2 %), xizmatlar sohasida 104,9 % (32,8 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 5 298,9 ming so`mni tashkil etdi va 3,0 % ga o`sdi.

### Sirdaryo viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Toshkent viloyatida** YaHM 22 837,1 mlrd.so`mni tashkil etdi va 4,4 % ga o`sdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Jumladan: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 22,9 %), sanoatda – 105,0 % (45,2 %), qurilishda – 120,6 % (3,5 %), xizmatlar sohasida – 103,4 % (28,4 %) ijobiy o`shish sur`atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 3,2 % ga o`sdi va 7 944,2 ming so`mni tashkil etdi.


### Toshkent viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Farg`ona viloyatida** YaHM 5,3 % ga o`sdi va 14 345,2 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o`shish


surʼatlari bilan bogʻliq. Oʻsish surʼati qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 104,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 21,4 %), sanoatda – 106,6 % (26,9 %), qurilishda – 108,3 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 104,4 % (45,0 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 3 937,9 ming soʻmni tashkil etdi va 3,7 % ga oʻsdi.

### Fargʻona viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Xorazm viloyatida** YaHM 7 675,1 mlrd.soʻmni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 4,4 % ga koʻpdir. YaHM ning oʻsishi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi – 100,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 31,8 %), sanoat – 111,5 % (18,9 %), qurilish – 105,8 % (8,0 %), xizmatlar sohasidagi – 103,9 % (41,3 %) oʻsish surʼatlari bilan bogʻliq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,7 % ga oʻsdi va 4 228,5 ming soʻmni tashkil etdi.


### Xorazm viloyati YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



**Toshkent shahrida** YaHM 37 452,0 mlrd.soʻmni tashkil etdi, bu esa 2017 yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 8,4 % ga yuqoridir. YaHM

o`shining asosiy omillari bo`lib, sanoat – 105,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 33,2 %), qurilish – 111,0 % (8,7 %), xizmatlar sohasidagi – 109,2 % (58,1 %) ijobiy o`sh sur`atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6,6 % ga o`tdi va 15 093,1 ming so`mni tashkil etdi.

### Toshkent shahri YaHM ning fizik hajmi va deflyatori indeksi



### 2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida yalpi ichki (hududiy) mahsulot

	YaIM (YaHM), mlrd. so`m	Aholi jon boshiga YaIM (YaHM), ming so`m
<b>O`zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>244 343,7</b>	<b>7 433,4</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	8 193,9	4 425,1
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	13 177,9	4 347,6
Buxoro	10 440,0	5 551,4


<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



	<i>YaIM (YaHM), mlrd. so`m</i>	<i>Aholi jon boshiga YaIM (YaHM), ming so`m</i>
Jizzax	5 356,7	4 012,8
Qashqadaryo	15 341,4	4 836,8
Navoiy	13 270,8	13 767,8
Namangan	8 759,5	3 222,0
Samarqand	15 623,0	4 167,3
Surxondaryo	9 643,6	3 805,2
Sirdaryo	4 349,9	5 298,9
Toshkent	22 837,1	7 944,2
Farg`ona	14 345,2	3 937,9
Xorazm	7 675,1	4 228,5
Toshkent sh.	37 452,0	15 093,1

Respublika bo`yicha YaIM ning shakllanishida Toshkent shahri 15,3 % ulush bilan eng katta hissa qo`shdi. Toshkent viloyati 9,3 % va Samarqand viloyati 6,4 % ko`rsatkich bilan keyingi o`rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIM ni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (1,8 %), Jizzax (2,2 %), Xorazm (3,1 %) viloyatlariga to`g`ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida**  
**YalM ni shakllantirishda hududlarning ishtiroki**  
*(YalM ga nisbatan % da)*



2018 yilning yanvar – sentyabri yakunlari bo`yicha Toshkent shahri (108,4 %), Andijon viloyati (108,3 %) va Farg`ona viloyatida (105,3 %), yuqori o`sinh sur`atlari qayd etildi. Respublika darajasiga (105,2 %) nisbatan past o`sinh sur`atlari Samarqand (102,9 %), Qashqadaryo (103,0 %) va Buxoro (103,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2018 yilning yanvar – sentyabrida**  
**YaIM (YaHM) o`shish sur`atlari**  
*(2017 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan % da)*

	<b>YaIM (YaHM)</b>	<b>Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)</b>
<b>O`zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>105,2</b>	<b>103,5</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	104,8	103,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	108,3	106,5
Buxoro	103,8	102,3
Jizzax	104,1	102,1
Qashqadaryo	103,0	101,0
Navoiy	104,0	102,4
Namangan	105,0	103,1
Samarqand	102,9	100,9
Surxondaryo	104,2	102,0
Sirdaryo	104,6	103,0
Toshkent	104,4	103,2
Farg`ona	105,3	103,7
Xorazm	104,4	102,7
Toshkent sh.	108,4	106,6

2018 yilning yanvar – sentyabri yakunlariga ko`ra, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHM tarkibidagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich

<sup>1)</sup> *Hududlar bo`yicha taqsimlanmagan ma`lumotlarni qo`shgan holda*

Surxondaryo viloyatida (41,7 %), sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (62,4 %), qurilishning eng yuqori ulushi Buxoro viloyatida (11,4 %), xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa, Toshkent shahrida (58,1 %) kuzatildi.

YaHM tarkibida qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi (13,4) hamda xizmatlar sohasining (19,3) eng kam ulushi Navoiy viloyatida, sanoatning eng kam ulushi Surxondaryo viloyatida (8,3 %), qurilishning eng kam ulushi esa, Toshkent viloyatida (3,5 %) qayd etildi.

**2018 yil yanvar – sentyabr oylarida  
YaHM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

